

PCE2513



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS**  
**OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: gov.uz/edu

2026-yil 1-iyun

01/23-3850-son

**Davlat oliy ta‘lim**  
**muassasalari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF–270-son Farmoniga muvofiq korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning 2030-yilgacha bo‘lgan qator ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Jumladan, korrupsiya omillarini aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish maqsadida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmasligi, bunda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etilishi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining mas‘ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir minimal talablar joriy etilishi belgilandi.

Hozirda, vazirlik tizimidagi ayrim oliy ta‘lim muassasalari tomonidan minimal talablarni asos qilgan holda muassasaning Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i yoki bosh mutaxassislarini egallab turgan lavozimidan ozod etish masalasi ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur xodimlarga ustamalar turli miqdorlarda belgilanmoqda va to‘lanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tegishli xulosalariga ko‘ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmaydi. Bunda, samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi. Shuningdek, mazkur bo‘linmalarning mas‘ul lavozimlariga nisbatan joriy etilgan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir minimal talablar lavozimni egallab turgan xodimlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmasin, samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etilsin. Shuningdek, mazkur bo‘linmalarning mas‘ul lavozimlariga nisbatan joriy etilgan ish tajribasi va kasbiy

kompetensiyasiga doir minimal talablar lavozimni egallab turgan xodimlarga nisbatan qo'llanilmasin.

Ilova: 4 bet.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiylikini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

Ijrochi: Sh.Yadgarov  
Telefon: (55) 520-08-08 (282)